



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2026-yil 1-son

Volume 5, Issue 1, 2026



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117**



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2026

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)
Xeynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muharrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir (Executive Editor): Iskandarova Dilafroz Ikrom qizi

Veb-administrator (Web admin): Mamatxo'jayev Otabek

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

A.B.Irmatova M.A.Ibodullayeva	<i>Raqamli texnologiyalarning joriy etilishining ijtimoiy mehnat munosabatiga ta'siri</i>	5-13
I.A.Bakiyeva Z.A.Azamatova	<i>O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaruvchi sabablari va omillari</i>	14-25
M.O.Hamroqulov	<i>Barqaror demografik rivojlanish va mehnat resurslarining hududiy muvozanati</i>	26-37

DEMOGRAFIYA

T.Q.Aliyev Sh.T.Aliyev	<i>Factors affecting demographic development in Azerbaijan and opportunities to use them</i>	38-57
---	--	-------

INSON KAPITALI

S.M.Dusanov	<i>Ta'lim tizimi moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga to'g'ri va aks ta'sir etuvchi omillar</i>	58-68
G.Z.Ubaydullayev	<i>Improvement of regional socio-economic development based on human capital management</i>	69-76
S.R.Xolbayeva	<i>Классификация участия человека в экономической системе по признаку его функциональной роли и институционального положения в воспроизводственном процессе</i>	77-93

INSON TARAQQIYOTI

F.A.Abduraxmonov	<i>Digital silk road and Uzbekistan: infrastructure upgrading, inclusion, and digital services growth</i>	94-103
Sh.Z.Karimova	<i>Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholashning nazariy asoslari</i>	104-109
O.S.Mirzamurodov	<i>Namangan viloyati aholi daromadlari darajasi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish dinamikasining tahlili</i>	110-118

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

D.I.Iskandarova D.R.Ro'zimurodova	<i>Kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining o'rni</i>	119-128
--	---	---------

MIGRATSIYA

- O.O.Dlyanchev** *Фактор миграционной политики ФРГ в обеспечении национальных интересов Республики Узбекистан* 129-140

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

- O'X.Abdukarimov** *Davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun xulosalar* 141-157
- F.Z.Tolibova** *Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqaruv samaradorligini ta'minlashda hr analitikaning o'rni* 158-165

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

- A.S.Abdullayev** *Tabiiy falokatlar (NATCAT) qayta sug'urtalashida PML ko'rsatkichini baholashning ekstremal qiymatlar ekonometrikasi* 166-174
- E.D.Abduxakimov** *Роль малого бизнеса в обеспечении занятости населения в Узбекистане* 175-182
- M.M.Anvarova** *Kichik biznes subyektlarining raqamli platformalar orqali rivojlanishi nazariy asoslari* 183-190
- Sh.U.Karimova** *Ekologik barqaror transport turlarini iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash va baholash* 191-199
- D.T.Salimov**
S.D.Tojiyev
J.A.Fayziyev *Kobba–Duglas funksiyasi yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish* 200-217
- M.O.Shadmanova** *Mintaqalarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish imkoniyatlari (Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida)* 218-231



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TA'LIM TIZIMI MOLIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TO'G'RI VA AKS TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Dusanov Salim Mamarasulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, (PhD),

Mustaqil tadqiqotchi

e-mail: msalimd@mail.ru

ORCID: 0009-0005-1912-0023

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a242

Annotasiya. Maqolada ta'lim tizimida samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar, samaradorlikni oshirishda uchrayotgan tashkiliy-iqtisodiy masalalari, moliyalashtirish masalalari, muammolari hamda uning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda ta'lim muassasalarida samaradorlikni oshirish byo'icha bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar, moliyaviy resurslar samaradorligi, innovasion salohiyatni oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari borasida tahliliy yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy resurslar samaradorligi, innovasion salohiyat, ta'lim tizimi, moliyalashtirish, moliyalashtirishning holati, muammolari va moliyaviy resurslar samaradorligi, moliyalashtirish zaruriyati, takomillashtirish, moliyaviy barqarorlik.

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Дусанов Салим Мамарасулович

Ташкентский государственный экономический университет, (PhD),

независимый исследователь

Аннотация. В статье рассматриваются факторы, влияющие на показатели эффективности в системе образования, организационно-экономические вопросы, возникающие при повышении эффективности, вопросы финансирования, проблемы и их значение. Одновременно представлены аналитические подходы к реализуемым проектам повышения эффективности в образовательных учреждениях, эффективности финансовых ресурсов, существующим проблемам повышения инновационного потенциала и их решениям.

Ключевые слова: эффективность финансовых ресурсов, инновационный потенциал, система образования, финансирование, состояние финансирования, проблемы и эффективность финансовых ресурсов, потребность в финансировании, совершенствование, финансовая стабильность.

POSITIVE AND NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF THE USE OF FINANCIAL RESOURCES OF THE EDUCATIONAL SYSTEM

Dusanov Salim Mamarasulovich

Tashkent State University of Economics, (PhD),
Researcher

Abstract. The article describes the factors affecting the efficiency indicators in the education system, organizational and economic issues encountered in increasing efficiency, financing issues, problems and their significance. At the same time, analytical approaches are presented to the projects being implemented to increase efficiency in educational institutions, the efficiency of financial resources, existing problems in increasing innovative potential and their solutions.

Keywords: efficiency of financial resources, innovative potential, education system, financing, state of financing, problems and efficiency of financial resources, the need for financing, improvement, financial stability.

Kirish

Ta’lim tizimi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilaydigan muhim ko’rsatkichlardan biri bu moliyaviy resurslarning samaradorligidir. Hozirgi global raqobat muhitida davlatlar zamonaviy bilim va texnologiyalardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga erishmoqda. Shu bois, ta’lim muassasalarini zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi ta’minlash va ilmiy tadqiqotlar bilan bog’liq muammolarning tahlili dolzarb ahamiyatga ega. Ta’lim tizimidagi moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishda to’siqlarni tashkiliy va iqtisodiy muammolar sifatida tasniflagan holda o’rganish maqsadga muvofiq.

Ta’lim tizimidagi moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishda uchraydigan tashkiliy muammolar sirasiga avvalom bor boshqaruv va struktura bilan bog’liq bo’lgan to’siqlar kiradi. Bunda ta’lim tizimi ko’p qavatli va markazlashtirilgan bo’lib, moliyaviy resurslar samaradorligini aniqlashda byurokratik to’siqlar paydo bo’ladi. Chunki, ta’lim tashkilotlarida boshqaruvlar markazlashgan holda amalga oshiriladi va strukturalar ham eskirgan holda amal qilib kelmoqda. Chunki, yangi moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishni tasdiqlash jarayoni ko’p bosqichli va murakkab bo’lganligi munosabati bilan amalga oshirishni kechiktiradi³. Rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligini aniqlash va oshirish bo’yicha olib borilayotgan ishlar bugungi kunda juda ilgarilab ketgan⁴. Fikrimizcha, ta’lim tashkilotlarida moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishda, uning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv holati, talaba-o’quvchilar kontingent miqdorlari, infratuzulma, moddiy-texnika bazasining holati va ilmiy salohiyati inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ta’lim tashkilotlari va ilmiy markazlarga moliyaviy va akademik

³ScienceDirect. (2016). *Challenges in managing innovation in higher education institutions*. Retrieved December 19, 2025, from <https://www.sciencedirect.com/science/article>

⁴ScienceWeb.uz. (2018). *Innovatsion ta’lim tizimini rivojlantirish va ilmiy kadrlar sarmoyasi*. Retrieved December 19, 2025, from

mustaqillik berilishi va yangi innovasion dasturlarni tezkor tasdiqlash uchun soddalashtirilgan proseduralar joriy etish ko'zlangan maqsadga yaqinlashtiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Respublikamizda ta'limning bircha bosqichlaridagi ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish va davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari ilmiy tadqiq obyekti sifatida o'rganilishi holati so'ngi 5-6 yilda ko'paymoqda.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari U.Djumaniyazov(2017) Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga o'zining taklif va tavsiyalarini bergan, K.Nasurova (2023) «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirishni tavsiya qilgan. F.Karabayev, N.Yusupov (2017), S.Yakubova(2023)larning ilmiytadqiqot ishlarida ta'lim tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish masalalari o'rganilgan.

Shu bilan bir qatorda, ta'lim tizimini moliyalashtirishda “moliyalashtirish” tamoyillarini va uning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini ham chuqur tadqiq etish dolzarb masalalardan biri sifatida qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va xalqaro tajribani solishtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-nazariy qarashlar milliy sug'urta bozoridagi amaliyot bilan uyg'un holda o'rganildi.

Tahlil va natijalar

Ta'lim tizimi moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar majmuasini bilvosita va bevosita ta'sir etuvchi omillar toifasiga bo'lgan holda o'rganish maqsadaga muvofiq. Bu omillar majmuasi tizimdagi moliyaviy mablag'larning shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lib, ular natijalarning tez va aniq o'zgarishiga sabab bo'ladi. Quyida ta'lim tizimida moliyaviy resurslar samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz. Jumladan:

Davlat byudjeti va tizimga ajratilayotgan moliyaviy resurslar hajmi.

Ta'lim tizimi asosan davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgani bois uning hajmi va tarkibi moliyaviy samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi. YaIMdagi ta'lim xarajatlari ulushi o'sishi ta'lim sifatining yaxshilanishiga, infratuzilma va kadrlar salohiyati ko'rsatkichlarining o'sishiga xizmat qiladi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, “ta'lim xarajatlari YaIMning kamida 5 foizini tashkil etganda ta'lim tizimda barqaror rivojlanishga erishish mumkin”⁵.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini bir butun holatda qaralsa, maktabgacha va maktab ta'limi to'laqonli byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi,

⁵ World Bank. Education Finance Overview, 2023.

o’rta maxsus ta’lim bosqichida emas ma’lum miqdorda byudjetdan tashqari mablag’lar ulushi yuzaga kelgan, oliy ta’lim bosqichi ta’limning barcha bosqichlarida eng kam byudjet mablag’lari sarflanadigan qismi hisoblanadi, oliy ta’limdan keyingi ta’limni moliyalashtirish ham asosan byudjet mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy resurslarni taqsimlash mexanizmi. Mablag’larni taqsimlash usullari moliyaviy samaradorlik ko’rsatkichlarining asosiy belgilovchi faktorlari hisoblanadi. Normativga asoslangan moliyalashtirish, jon boshiga to’g’ri keladigan daromad yoki xarajat tamoyili, natijadorlikka asoslangan grantlar, davlat xaridlarida tender asosida mablag’ ajratish mexanizmi kabilan ta’lim tizimida mablag’lar sarfining aniq maqsadlarga yo’naltirish imkonini beradi.

OECD mamlakatlarida “natijaga yo’naltirilgan moliyalashtirish tizimining joriy etilishi ta’lim muassasalarida xarajatlar samaradorligini o’rtacha 12–18 foizga oshirgani qayd etilgan⁶.

Mablag’lar sarflanishining shaffofligi va nazorati. Shaffof moliya boshqaruvi korrupsiya xavfini kamaytiradi, mablag’lar maqsadli sarflanishini ta’minlaydi hamda tashqi audit tizimining kuchayishiga sabab bo’ladi. Elektron audit, byudjet ijrosining onlayn monitoringi, “Ochiq byudjet” platformalarining faoliyati bu boradagi eng muhim vositalardir.

O’zbekistonda 2020 yildan buyon “davlat xaridlarining 96 foizi elektron shaklda amalga oshirilishi natijasida moliyaviy tejamkorlik oshgani kuzatilgan”⁷.

Moliyaviy rejalashtirish va strategik boshqaruv sifatleri

Moliya resurslarining rejalashtirilishida strategik yondashuv, xavflar tahlili, ustuvor yo’nalishlarni aniq belgilash va natijani baholash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Xodimlar malakasining yetarli emasligi, byudjet rejalashtiruvchi sifatining pastligi ko’p hollarda moliyaviy samarasizlikka olib keladi. Zamonaviy ta’lim tizimida moliyaviy rejalashtirish ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish hamda inson kapitali rivojini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy boshqaruv instrumentlaridan sanaladi. Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari mablag’lar manbalari va xalqaro investisiyalarning oqilona taqsimlanishi ta’lim sohasida strategik maqsadlarga erishish imkoniyatini oshiradi. Ta’lim tizimida moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifasi — moliyaviy resurslarni ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari bilan uyg’unlashtirishga qaratilgan bo’lishi talab etiladi. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, moliyaviy rejalashtirish darajasi yuqori bo’lgan ta’lim tizimlarida ta’lim muassasalarining institusional barqarorligi, avtonomiyasi va xalqaro raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshganligini ko’rishimiz mumkin. Strategik boshqaruv ta’lim tizimida moliyaviy rejalashtirishni faqat xarajatlar

⁶ OECD. Results-based Funding in Education. Paris, 2022.

⁷ Ministry of Finance of Uzbekistan. Open Budget Report, 2023.

rejasi sifatida emas, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatida talqin etishi lozim.

Infratuzilma loyihalarining iqtisodiy samaradorligi. Ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo’naltirilgan investisiya loyihalarining hisob-kitoblari (ROI, CBA, IRR) asosida amalga oshirilishi moliyaviy natijadorlikni oshiradi.

Jahon amaliyoti shuni ko’rsatadiki, “har 1 dollarlik infratuzilma sarfi kelgusida 3–5 dollar miqdorida iqtisodiy qaytim keltiradi”⁸.

Raqamlashtirish darajasi. Moliyaviy jarayonlarni raqamlashtirish ta’siri bevosita seziladi: elektron hisobotlar, elektron jurnal, avtomatlashtirilgan xaridlar, blokcheyn asosidagi audit, sun’iy intellekt orqali byudjet tahlili va prognozlashtirish tizimlari mablag’lar tejallishiga olib keladi.

Ta’lim sohasida raqamlashtirish natijasida boshqaruv xarajatlari o’rtacha 10–15 foizga kamayishi”⁹ ta’kidlangan.

Ta’lim tizimi moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi **bilvosita omillar**. Bilvosita omillar moliyaviy resurslardan foydalanish jarayoniga bevosita ta’sir qilmagan holda, ta’limning umumiy ekotizimiga ta’sir ko’rsatadi va shu orqali moliyaviy samaradorlikka o’z ta’sirini o’tkazadi. Jumladan:

Demografik vaziyat va aholi strukturasi. Aholi sonining o’sishi, urbanizatsiya darajasi, bolalarning hududlar bo’yicha noteng taqsimlanishi maktabgacha va maktab tizimiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Demografik bosimning ortishi infratuzilmani qayta rejalashtirish, maktabgacha va maktab tizimini kengaytirish, oliy ta’lim tashkilotlarini ko’paytirish, yangi binolar qurish kabi xarajatlarni talab qiladi. Bu esa moliyaviy resurslarga bo’lgan ehtiyojni oshiradi.

Iqtisodiy o’sish va byudjet barqarorligi. Mamlakat iqtisodiy o’sishi byudjeti daromadlarini oshiradi, bu esa ta’lim sohasini keng ko’lamda moliyalashtirish imkonini yaratadi. Aksincha, iqtisodiy inqiroz sharoitida ta’lim xarajatlari ko’p hollarda qisqartiriladi. Iqtisodiy barqarorlik moliyaviy samaradorlik uchun asosiy makroomil hisoblanadi.

Kadrlar salohiyati va o’qituvchilar malakasi. O’qituvchilar malakasi qanchalik yuqori bo’lsa, ta’lim natijalari shunchalik yaxshi bo’ladi, bu esa moliyalashtirish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Kadrlar salohiyati past bo’lgan tizimda qancha mablag’ sarflanmasin, natija kutilgan darajada bo’lmaydi.

Ilmiy izlanish ko’rsatishicha, “dunyoning aksariyat mamlakatlarida o’qituvchilar malakasini oshirishga davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag’lar hisobidan ajratiladigan xarajatlar har yili 20 foizgacha oshirib borilmoqda”¹⁰.

⁸ UNESCO. Educational Infrastructure Efficiency Report, 2021.

⁹ OECD Digital Education Review, 2022.

¹⁰ UNESCO Teacher Development Global Report, 2022

Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni¹¹

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar								
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
1.	Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni	476	504	1200	803	1793	2585	3841	4970	476

Izoh: *2025 yil 1 aprel holatiga olingan.

Tizimda professor-o'qituvchilarning xorijda malaka oshirishi va stajirovka o'tashi kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda milliy oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Jadvalda keltirilishicha, 2017-yilda xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar soni 476 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda ushbu ko'rsatkich 504 nafarga yetgan. Mazkur davrda o'sish sur'atlarining nisbatan pastligi xorijiy ta'lim dasturlarida ishtirok etishning asosan individual tashabbuslar va cheklangan moliyalashtirish manbalari asosida amalga oshirilgani bilan izohlanadi. 2019-yildan boshlab ko'rsatkichlarda keskin o'sish kuzatilib, xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilar soni 1200 nafarga yetgan. Bu holat oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, akademik mobillikni institusional darajada qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan davlat siyosatining faollashgani bilan bog'liq. 2020 yilda mazkur ko'rsatkich 803 nafargacha pasaygan bo'lib, bu global COVID-19 pandemiyasi sharoitida xalqaro safarlar cheklangani, ko'plab stajirovka va malaka oshirish dasturlarining to'xtatilgani yoki onlayn formatga o'tkazilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pasayish vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lib, tizimli inqirozga olib kelmagan. 2021–2024-yillarda ko'rsatkichlarning jadal o'sishi kuzatilib, 2021-yilda 1793 nafar, 2022 yilda 2585 nafar, 2023-yilda 3841 nafar va 2024-yilda 4970 nafar professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan. Ushbu bosqich pandemiyadan keyingi tiklanish davri sifatida baholanib, davlat tomonidan moliyalashtirish hajmining oshirilishi, xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish uchun institusional mexanizmlarning joriy etilishi hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan strategik hamkorlikning mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. 2025-yil uchun keltirilgan 476 nafarlik ko'rsatkich (*belgi bilan) yil to'liq yakunlanmagan holatda shakllangan dastlabki ma'lumot sifatida baholanishi lozim. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan mazkur qiymatni uzoq muddatli tendensiyani belgilashda mustaqil omil

¹¹Олий таълим, фан ва инновациялар вазириликнинг статистик маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

sifatida emas, balki vaqtinchalik statistik holat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillar davomida professor-o'qituvchilarning xorijda malaka oshirish ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, mazkur jarayon milliy oliy ta'lim tizimida inson kapitaliga yo'naltirilgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tashkiliy-huquqiy muhit. Ta'lim muassasalarining avtonomiyasi, davlat-xususiy sheriklik modellari, nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishi moliyaviy yukni kamaytiradi va raqobat orqali samaradorlikni oshiradi. Sir emaski, islohatlar natijasida ko'pgina normativ-huquqiy xujjatlar yangilandi, o'zgartirishlar kiritildi lekin ta'lim tizimiga oid o'zgartirishi va yangilanishi kerak bo'lgan normativlar bugungi kunda ham mavjud. Ayrim moliyalashtirishga bag'ishlangan xujjatlarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijtimoiy talab va ta'lim madaniyati. Jamiyatda ta'limga bo'lgan ehtiyoj, ota-onalar faolligi, ta'lim madaniyatining yuqori darajada bo'lishi ta'lim muassasalarini ijtimoiy javobgarlikka undaydi. Bu esa moliyaviy resurslarning maqsadli va samarali sarflanishiga bilvosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy talab — umumjamiyat a'zolari tomonidan, mehnat bozori va davlat tomonidan ta'lim tizimidan kutayotgan takliflar, o'zgarishlar hamda tizimga qo'yilayotgan ehtiyojlarning bir butun majmuasi hisoblanadi. Mazkur majmua milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi, demografik o'zgarishlar, raqamli-texnologiyalar taraqqiyoti hamda milliy urf-odat va madaniy qadriyatlar o'zaro chambarchas bog'liq bir butun jarayon. Bugungi kunda ijtimoiy talabning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namayon bo'lmoqda. amaliyotga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalar, raqamli va innovasion rivojlanish kompetensiyalari, ta'lim-tarbiya uyg'unligi va milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Ta'lim madaniyati — mavjud ta'lim tizimiga bo'lgan ishonch, munosabat, ta'lim jarayonidagi o'dob-axloq me'yorlari va pedagogik mahorat uyg'unligi bilan ihoqlanadi. Ta'lim madaniyati faqatgina ilm berish bilan cheklanib qolmasdan, balki insonni insoniy fazilatlar bilan komil shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy instrument ko'rinishida o'zini namayon qilish talab etiladi.

Innovasion muhit va ilmiy-tadqiqot salohiyati. Innovasiyalarga boy muhitda ta'lim tizimida rejalashtirish, baholash va ta'lim sifatini oshirish jarayonlari samarali amalga oshiriladi. Ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratiladigan mablag'lar kam bo'lgan mamlakatlarda ta'limning rivojlanish sur'atlari past bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslarni samaradorli, natijadorlikka asoslangan va maqsadlilik prinsiplari doirasida sarflanishi uchun albatta innovasion muhit va tizimda erishilayotgan ilmiy-tadqiqotlar natijadorligi muhim ta'sir etuvchi omillardan sanaladi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish ko'rsatkichlari¹²

T/R	Ko'rsatkichlar	Yillar kesimida							
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar (mlrd)	198,0	324,0	482,2	514,2	526,9	629,0	663,4	570,0
2.	Moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar soni		1 539	1 354	915	1 074	977	745	605

2-jadvaldan ko'rinadiki, ta'lim tizimida ilmiy -tadqiqotlarni qullab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha davlat byudjetidan 2018-yilda 198 mlrd.so'm ajratilgan bo'lsa bu kursatkich 2025-yilda 570 mlrd.so'mga yetgan ya'ni 35% o'sgan. Ilmiy-tadqiqot loyihalar soni esa 2025-yilga kelib 605ta bo'lgan. Bunga sabab ilmiy-tadqiqot loyihalarining salohiyati ortganligi, moliyaviy qiymati yuqori bo'lgan yirik ilmiy-tadqiqot loyihalariga o'tilganligi bilan izohlash mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar sirasiga kiradi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish milliy innovasion tizimni rivojlantirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash hamda iqtisodiyotning bilimga asoslangan tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilinayotgan davrda davlat byudjeti hisobidan ilm-fan sohasiga ajratilgan mablag'lar hajmi umumiy holda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2018-yilda mazkur ko'rsatkich 198,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 324,0 mlrd so'mga, 2020-yilda esa 482,2 mlrd so'mga yetgan. Bu davrda mablag'lar hajmining keskin o'sishi ilm-fanni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi. 2021-2024-yillarda ham o'sish dinamikasi saqlanib, 2021-yilda 514,2 mlrd so'm, 2022 yilda 526,9 mlrd so'm, 2023-yilda 629,0 mlrd so'm va 2024-yilda 663,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu holat ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning institusional asoslari mustahkamlanayotgani va davlatning ushbu sohadagi roli kuchayib borayotganini anglatadi. 2025 yil uchun belgilangan 570,0 mlrd so'mlik ko'rsatkich esa avvalgi yilga nisbatan qisman kamayishni aks ettirib, byudjet siyosatini optimallashtirish, mablag'larni qayta taqsimlash yoki ustuvor yo'nalishlarni aniqlashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Davlat mablag'lari hajmi o'sishiga qaramasdan, moliyalashtirilgan ilmiy loyihalar

¹² Инновацион ривожланиш агентлигининг статистик маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

sonida qisqarish tendensiyasi kuzatiladi. Agar 2019-yilda 1539 ta ilmiy loyiha moliyalashtirilgan bo'lsa, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 1354 tani, 2021-yilda esa 915 tani tashkil etgan. Bu pasayish pandemiya sharoitida ilmiy faoliyatning cheklanishi, shuningdek, loyihalarni saralash talablarining kuchaytirilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, 2022–2025-yillarda ham qisqarish tendensiyasi davom etib, 2022-yilda 1074 ta, 2023-yilda 977 ta, 2024-yilda 745 ta va 2025-yilda 605 ta ilmiy loyiha moliyalashtirilgan. Mazkur holat ilmiy loyihalar soni emas, balki ularning sifati, yirikligi va amaliy samaradorligiga ustuvorlik berilayotganini ko'rsatadi. Davlat byudjeti mablag'lari hajmining ortishi ilmiy loyihalar sonining ko'payishi bilan to'g'ridan-to'g'ri mutanosib emas. Aksincha, moliyalashtirish hajmi o'sgan sari loyihalar soni qisqarib, bir loyihaga to'g'ri keladigan o'rtacha mablag' hajmi oshgan. Bu holat ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda ekstensiv modeldan intensiv modelga o'tish jarayonini ifodalaydi. 2018–2024-yillar davomida davlat byudjeti hisobidan ilm-fan sohasiga ajratilgan mablag'lar hajmining barqaror o'sishi milliy ilmiy siyosatning tizimli va uzoq muddatli xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Davlat moliyalashtirish siyosatining mazkur transformasiyasi ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, innovasion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va iqtisodiyot tarmoqlari bilan integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilishga olib keladi.

Xorijiy va mahalliy investison muhit. Ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi, davlat-xususiy sheriklik modellari, ta'limga xorijiy va mahalliy xususiy investisiyalarning samarali oqimi va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishi va ko'payishi byudjet mablag'lariga yuklamani kamaytiradi, teng manfaatlarga asoslangan munosabatlarni shakllantiradi va sog'lom raqobat orqali samaradorlikni oshiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin, ta'lim tizimida moliya resurslaridan foydalanish samaradorligi ta'lim sifatini oshirish, inson kapitali rivojini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur samaradorlik darajasi ko'p qirrali iqtisodiy, institusional va boshqaruv omillari ta'sirida shakllanib, ularning ayrimlari ijobiy (to'g'ri), ayrimlari esa salbiy (aks) ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, to'g'ri va aks ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi muvozanat ta'lim tizimida moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilaydi. Agar ijobiy omillar tizimli ravishda rivojlantirilsa va salbiy omillar institusional islohotlar orqali cheklansa, ta'lim tizimida resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayev N.X., Raxmonov D.A. Oliy ta'lim olishni xususiy manbalardan moliyalashtirish: nazariya va amaliyot//Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar elektron jurnali. – T.: TDIU, 2018. – №5.
2. Yo'ldoshev J.T. Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirishning dolzarb

masalalari//Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar elektron jurnali. – T.: TDIU, 2018. - №5.

3. Maxmudov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida moliyalashtirish tizimini boshqarishning halqaro amaliyoti//Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar elektron jurnali. – T.: TDIU, 2015. - №1.

4. Sherov A.B. Ta’lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning huquqiy asoslari va obyektiv zarurati//“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. –T.: TMI, 2017. -№3.

5. Do’stmuxammad X.U. Xalq ta’limini samarali moliyalashtirishni tashkil etish yo’llari: i.f.n. ... avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2012. – 22 b.

6. Fedina N.V. Organizasionno-pedagogicheskiye usloviya povыsheniya effektivnosti munisipalnoy sistema doshkolnogo obrazovaniya: avtoreferat ... k.p.n. – Yeles. YelGU im. I.A.Bunina, 2005. – s. 24.

7. Sidorova A.A. Strategiya upravleniya sistemoy obrazovaniya kak element gosudarstvennoy politiki: avtoreferat ... k.e.n. – Moskva. MGU im. Lomonosova, 2012. – s. 28.

8. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’ulmotlari (<https://stat.uz/uploads/docs/tur-dar-17uz1.pdf>)

9. Mingat A., Tan J. The Full Social Returns to Education: Estimates Based on Countries’ Economic Growth Performance//Human Capital Development Working Paper 73. World Bank, Washington, DC. 1996.

10. Ivanova L.P. Finansirovaniye obrazovatelnoy sfery v usloviyax reformirovaniya byudjetnoy sistema: avtoreferat ... k.e.n. – Nijniy Novgorod.: GOU VPO Volgo Vyatskoy AGS, 2007. – 25 s.

11. Yegupova O.A. Sovershenstvovaniye finansovogo obespecheniya munisipialnix obshchobrazovatelnykh uchrejdeniy: avtoreferat ... k.e.n. – M.: GOU VPO «Rossiyskiy gosudarstvennyy sotsialnyy universitet», 2010. – 26 s.

12. United Nations Educational, Scientific and Cultural organization(UNESCO) [Electronic resource]: UIS Statistics in Brief. Education (all levels) profile – France, Germany, Sweden,USA / United Nations Educational, Scientific and Cultural organization (UNESCO). UNESCO Institute for Statistics, 2011. – Access mode : <http://stats.uis.unesco.org>

13. ScienceDirect. (2016). *Challenges in managing innovation in higher education institutions*. Retrieved December 19, 2025, from <https://www.sciencedirect.com/science/article>

14. ScienceWeb.uz. (2018). *Innovatsion ta’lim tizimini rivojlantirish va ilmiy kadrlar sarmoyasi*. Retrieved December 19, 2025, from

15. PPT-Online. (n.d.). *Infrastructure challenges in innovation implementation in education*. Retrieved December 19, 2025, from https://en.ppt-online.org/1623974?utm_source=chatgpt.com

16. OAPub.org. (n.d.). *Startup ecosystem and innovation support in education*. Retrieved December 19, 2025, from https://oapub.org/edu/index.php/ejes/article/view/2784?utm_source=chatgpt.com

17. OECD. (2023). Education at a Glance. OECD Publishing; UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report. Paris.; World Bank. (2023). Digital Development Report. Washington DC.
18. Schleicher, A. (2020). The Future of Education and Skills. OECD.; Fullan, M. (2019). The Deep Learning Revolution. Routledge.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz